Развитие критического мышления младших школьников на уроках читательской грамотности .....	808
<i>Мухаммадиева Марифат Мурод кизи</i>	
Искусство подбора слов: стилистические и семантические возможности перифраз .....	811
<i>Юлдашева Дилноза Бекмуродовна</i>	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarda reflektiv tafakkurni rivojlantirishning vazifalari va pedagogik imkoniyatlari .....	815
<i>Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna</i>	
The Human Factor in AI-Mediated English Instruction: Balancing Technology and Pedagogical Expertise .....	818
<i>Ikramova Aziza Aminovna</i>	
Madaniyat tushunchasi va uni xorijiy til o'qitishda o'rganish zarurati .....	823
<i>Ma'murova Farangiz Ne'matovna</i>	
O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish: zamonaviy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi .....	827
<i>Ostonova Ma'mura Ulug'bek qizi</i>	
Ko'zi oqib boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentsiyasini o'rganishning nazariy asoslari .....	830
<i>Qarshiboyev Asiddin</i>	
Farzand tarbiyasida ota-onaning pedagogik-psixologik malakalari .....	834
<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashning tashkiliy-ilmiy asoslari .....	839
<i>Xolmatov Pardaboy Qoraboevich</i>	
Методология типологического и сравнительного анализа детского фольклора .....	844
<i>Азмиева Э. Э.</i>	
Maktabgacha ta'lim elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish zarurati .....	851
<i>Xoldarova F. M.</i>	
Multimadaniy muhitda pedagoglarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari .....	854
<i>Gulyamova Nafisa Burikulovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda oila va mahallaning roli .....	858
<i>Rizayeva Xusniya Ubayevna</i>	
Raqamli pedagogika: zamonaviy ta'limda innovatsion texnologiyalar roli .....	861
<i>Maxmudova Dilnoza Xaytmirzaevna</i>	
Badiiy adabiyot – maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik dunyoqarashni shakllantiruvchi omil sifatida .....	865
<i>Xujamberdiyeva Shahnoza Kupaysinovna</i>	
Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'lim islohatlar bosqichida .....	868
<i>Boyqulov Azamat Maxram o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor o'rinbosarlarining menejerlik ko'nikmalarini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni mahalliy sharoitda qo'llash imkoniyatlari .....	871
<i>Maxamadaliyeva Ezoza Rustamxo'ja qizi</i>	
Oliy badiiy pedagogik ta'lim muassasasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini maktab o'quvchilarida illyustrativ rasm ishlashga oid kompetensiyalarini shakllantirishga tayyorlashning mazmuni .....	875
<i>Sobirov Sarvar Tursunmurotovich</i>	
Kasb-hunar maktablarida fizika fanini steam integratsiyasi asosida o'qitishning nazariy-didaktik asoslari .....	878
<i>Mamatxonov Yorkin Abduraimjanovich, Soliyeva Mubinabonu Zokirjon qizi</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari .....	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
<i>Ahmedova Lola Abdivasi qizi</i>	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
<i>Anvarova Dilfuza Akramjanovna</i>	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
<i>Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna</i>	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
<i>Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna</i>	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish.....	904
<i>Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
<i>Isabekova Dilafuz Shermirzayevna, Gazibekova Gulvaza Ergashovna</i>	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
<i>Murodov Akmal Djayliboyevich</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
<i>Po'latova Parida</i>	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
<i>Saparova Gulmira Baxtiyorovna</i>	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili.....	923
<i>Umarov Aziz Avazovich</i>	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
<i>Vasila Almetova Sunnatullayevna</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
<i>Adizova Nodira Baxtiyorovna</i>	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari.....	936
<i>Akmaljon Xushvaqto'v</i>	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari.....	939
<i>Delov To'liqin Erkinovich</i>	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi.....	945
<i>Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi</i>	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons.....	949
<i>Kholnazarova Vazira Bozor qizi</i>	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency.....	953
<i>Kosimov Sunnat Ravshan ugli</i>	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends.....	957
<i>Kuchkarova Xurshida</i>	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida).....	964
<i>Madaminov Javlonbek Zafarjonovich</i>	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari.....	968
<i>Mirzaakbarov Dilshod Davlatboyevich</i>	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar.....	971
<i>Musayev Zarifjon Tursunaliyevich</i>	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish.....	974
<i>Nodira Mirboboyeva</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli.....	977
<i>Odamboyeva Mehrimon Norimon qizi</i>	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
<i>Qurbanova O'g'iloy Axrorovna</i>	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari.....	985
<i>Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi</i>	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari .....	989
<i>Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li</i>	
Dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi.....	992
<i>Shermatova Yukut Sabirovna</i>	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi .....	995
<i>Soliyeva Diyora Bobur qizi</i>	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari .....	998
<i>Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi</i>	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	1001
<i>Tojibayeva Nazokatxon</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi .....	1005
<i>Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida.....	1008
<i>Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi</i>	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi .....	1011
<i>Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi</i>	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari .....	1015
<i>Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida .....	1018
<i>Xoshimova Y. I.</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni.....	1023
<i>Xudoyqulova Aziza Anvar qizi</i>	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi.....	1026
<i>Yuldashov Sherzod Sattorovich</i>	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников .....	1029
<i>Жамолова Зарнигор Баходир кизи</i>	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов.....	1033
<i>Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish .....	1038
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni.....	1041
<i>Haydarova Namuna</i>	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners.....	1044
<i>Mohigul Nizomiddinova</i>	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish.....	1049
<i>Soliyeva Maftuna Tirkash qizi</i>	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi .....	1053
<i>Xamrayeva Iroda Sayfullayevna</i>	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari .....	1056
<i>Xusanova Gulruksor To'liqin qizi</i>	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari .....	1059
<i>Xolikova Dilobarxon Maxsitovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari .....	1062
<i>Primkulova Iroda Berdimurodovna</i>	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati .....	1067
<i>Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna</i>	
Talabalarning ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish.....	1071
<i>Esmuratov Muzaffar Elamonovich</i>	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
<a href="#">Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich</a>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi .....	1076
<a href="#">Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li</a>	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari .....	1081
<a href="#">Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi</a>	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari .....	1084
<a href="#">Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna</a>	



# RINOLALIYA NUTQ NUQSONINING ANATOMIK JIHATDAN KELIB CHIQISHI

Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi

Qo'qon davlat universiteti

Maxsus pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari turlicha kechadi. Psixokorreksion ishlarni olib borishda har bir nuqson o'ziga xos yondashuvni talab etadi. Shu bois nuqsonga ega bo'lgan bolalarning psixik jarayonlari va individual xususiyatlarini o'rganish asosiy masala hisoblanadi. Eshitishida, ko'rishida, intellektida hamda nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarning holati va tarixini tahlil qilish orqali buzilishdagi tipik psixik holatlarning patogenezi yoritiladi. Shuningdek, maktabgacha yoshdagi nuqsonga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan kompleks korreksion-psixologik tuzatish metodlari o'rganiladi. Bu jarayonda o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish zarurati ham alohida ta'kidlanadi. Har bir nutq nuqsoni bolaning hissiy-irodaviy sohasi va psixik jarayonlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** intellekt, metod, tanglay-halqum, rinolaliya, tibbiy pedagogika.

**Abstract:** Children with developmental disorders demonstrate diverse features of their mental development, and each type of disorder requires a specific approach to psychocorrective intervention. Therefore, the study of mental processes and the individual characteristics of children with disabilities is of primary importance. The condition and case history of children with impairments in hearing, vision, intelligence, and speech are described, and the pathogenesis of typical psychological states associated with these disorders is analyzed. The methods of complex correctional and psychological interventions for preschool children with developmental disorders are explained. Emphasis is placed on the necessity for students to develop skills in applying their theoretical knowledge in practice. It is also highlighted that each speech disorder has its own specific features within the child's emotional-volitional sphere and mental processes.

**Key words:** intellect, method, palate-larynx, rhinolalia, medical pedagogy.

**Аннотация:** Дети с отклонениями в развитии имеют различные особенности психического развития, и каждое нарушение требует индивидуального подхода к психокоррекционной работе. Поэтому изучение психических процессов и индивидуальных особенностей детей с ограниченными возможностями здоровья является важной задачей. Рассматриваются состояние и анамнез детей с нарушениями слуха, зрения, интеллекта и речи, проводится анализ патогенеза типичных психических состояний при данных расстройствах. Освещаются методы комплексной коррекционно-психологической работы с детьми дошкольного возраста, имеющими отклонения в развитии. Отмечается необходимость формирования у студентов навыков применения теоретических знаний на практике. Подчеркивается, что каждый речевой дефект имеет свои особенные характеристики в эмоционально-волевой сфере ребенка и в психических процессах.

**Ключевые слова:** интеллект, метод, небо-гортань, ринолалия, медицинская педагогика.

## KIRISH

Har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish davrimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Vatanimizning kelajagi bugungi yosh avlodning ilmiy salohiyati, iste'dodi va mustaqil fikrlashiga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham bilimdon, keng dunyoqarashga ega, barkamol va ma'naviy yetuk shaxslarni tarbiyalash, yetishtirish vazifasi davlatimiz siyosati ustuvor yo'nalish darajasiga ko'tarildi. O'zgarishlarning genezisi ta'lim sohasida davlat siyosatining huquqiy va metodologik asoslarini yaratib berishdan boshlanadi. Bulardan eng muhimlari – ta'limning yangi tizimiga qo'yilgan hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda inkluziv ta'limni yanada taraqqiy ettirish, rivojlanishida nuqsonga ega bo'lgan bolalarni jamiyatning faol a'zolariga aylantirish hamda maxsus ta'lim sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

O'tkaziladigan izlanishlar jarayonida maxsus psixologik bilimlar tizimini, kamchiligi bor bolalarning psixologik rivojlanish qonuniyatlarini, ularning shaxsini shakllantirish omillarini o'zlashtirib olish, ularni hisobga olgan holda o'rganish va faol pedagogik-psixokorreksion (tuzatish) ishlarni olib borish zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nuqson mohiyatini va uni bartaraf etish imkoniyatlarini tibbiy va pedagogik hamda tibbiy tomondan o'rganish natijasida nutq buzilishlarini bartaraf etuvchi pedagogik metodlarda ikki yo'nalish vujudga keldi. Ularning birinchisi – nemis yo'nalishi bo'lib, Germaniya va boshqa qator mamlakatlarda qabul qilingan (G. Gutsman, 1924; G. Arnold, 1959; M. M. Vankevich, 1929; V. A. Koretnikova, 1927; M. E. Xvatsev, 1931, 1959). Bu yo'nalish kuchli ta'sirlovchilar bilan chiqariladigan qo'zg'alistning dastlabki irradiatsiyasi prinsipiga asoslanadi. Bu orqali normal nutq harakat organlarining kompleks faoliyatiga defektli organlar ham jalb qilinadi. Qo'llaniladigan mashqlar qisman tarang, kuchli xarakterga ega bo'ladi. Nemis maktabida logoterapevtik tadbirlarni elektro va vibromassajni qo'llash bilan birgalikda olib borish ko'zda tutiladi. Shundan keyin esa artikulyatsion va nafas treningi bo'yicha mashqlar kiritilar edi.

Ikkinchi yo'nalish shartli ravishda fransuz yo'nalishi deb atalib, to'g'ri nafas olish va ovoz hosil qilish tamoyiliga asoslanadi (S. Borel-Mézoni, 1929). Nemis yo'nalishining ko'zga ko'ringan mualliflaridan biri prof. G. Gutsman hisoblanadi. Uning tomonidan ishlab chiqilgan metodikada tanglay-halqum birikmasini yaxshilash uchun mashqlarning aniq tizimi tavsiya qilinadi. U nutqiy mashq qilishda obturator yoki burun qisqichini qo'llashni maslahat beradi. Nutq mashqlarining asosi – yuqori balandlikdagi ovozni qo'yish hisoblanadi. Baland nutqda ovoz bo'shlig'ining barcha ichki qismlarida kuchli inervatsiya paydo bo'lib, tanglay pardasining faolligi ortadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Muammoni o'rganishda shifokorlar, psixologlar va defektologlar o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Lab va tanglay yoriqlari bilan izohlanadigan rinolaliya tibbiyot va logopediyaning turli tarmoqlari uchun, xirurg-stomatologlar, ortodontlar, psixonevrologlar va logopedlar uchun muammo, ahamiyatga molik o'rganish obyekti va predmeti hisoblanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Rinolaliya bo'yicha dastlabki ilmiy ishlar shifokorlar tomonidan yozilgandir. Ularning harakatlari tanglay bo'rtmasini to'liq tiklashga qaratilgan edi. Qayta hosil qilingan tanglay pardasi yetarli darajada uzun va harakatchan bo'lishi, hamda halqumning orqa devori bilan birika olishi lozim. Bu samaraga erishish nutqdagi manqalikni yo'qotishga imkoniyat yaratadi yoki uni bartaraf qiladi. N. I. Pirogov (1844), N. V. Voronovskiy (1875), P. Subbotin, N. I. Pirogovning shogirdi N. V. Voronovskiy 1870-yilda normal nutqni tiklash yo'lida uranoplastika qilish orqali oldinga bir qadam qo'ydi, deb ta'kidlagan. Uning fikricha, uranoplastikadan keyin ham manqalanishning saqlanib qolish sababi yumshoq tanglayning ikkilamchi qisqarishi va harakatchanligining yetishmovchiligidir. Lekin uning fikricha, talaffuzdagi nuqsonlarni har kuni mashq qilish orqali korreksiyalashda nutq sekin-asta tushunarli bo'la boshlaydi.

Jarrohlar tomonidan og'iz bo'shlig'idagi anatomik defektni bartaraf qilish bo'yicha sezilarli ijobiy ishlar qilinganligiga qaramay, ulardan hech biri jarrohlik muolajasi yordamida nutqni fonetik yo'nalishda shakllantirish bo'yicha ijobiy natijalarga erisha olmagan. Uranoplastika rinolalikda nutqdagi nazal talaffuzni o'z-o'zidan bartaraf qilmaydi. A. A. Limbergning ko'rsatishicha (1964), xirurg mavjud yorug'likli deformatsiyani davolash va bartaraf etish ishida o'zining zimmasiga tushadigan vazifani aniq tasavvur qilishi kerak bo'ladi. Xirurgik davolashning vazifasi – mumkin qadar zararlangan organlarni ularning faoliyatini buzmasdan shakl va kattaligini to'liq qayta tiklashdir.

Chet el mutaxassislari rinolaliyani o'rganish va logoterapiyaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Lemone, Makuen, Kez va boshqalar (XX asr boshi) tanglay yoriqliklarini jarrohlik tomonidan davolashni takomillashtirdilar va doimo jarrohlik aralashuviga ko'ra ta'lim jarayoni o'smir va katta yoshdagi kishilarda nutqdagi manqalanishni bartaraf etishda katta imkon yaratadi, deb ta'kidladilar.

Nuqson mohiyatini va uni bartaraf etish imkoniyatlarini tibbiy hamda pedagogik tomondan o'rganish natijasida nutq buzilishlarini bartaraf etuvchi pedagogik metodlarda ikki yo'nalish vujudga keldi.

Rinolaliya hosil bo'lishiga ko'ra dislaliyadan farq qiladi. Ya'ni, rinolaliyada tovushlarni burun-dimog' orqali talaffuz qilish hollari kuzatiladi. Rinolaliyada tovushlar artikulyatsiyasi, fonatsiya va tovush hosil bo'lish mexanizmlari jiddiy ravishda normadan chetga chiqadi. Normal fonatsiyada kishida burun tovushlaridan tashqari nutqdagi barcha tovushlarni talaffuz qilish vaqtida burun-halqum va burun bo'shlig'i bo'g'iz va og'iz bo'shlig'idan ajralib turadi. Nutq jarayonida yumshoq tanglay uzluksiz ravishda turli balandlikka ko'tarilib-tushadi, bu holat tovushlar talaffuziga bog'liqdir. Unli tovushlar talaffuzida tanglay-halqum undosh tovushlar talaffuziga nisbatan kamroq birlashadi. Tanglay-halqumning eng kuchsiz birlashishi "v" undosh tovushi talaffuzida, eng kuchli birlashishi esa "s" undosh tovushi talaffuzida kuzatiladi. "M", "n" burun tovushlarining normal talaffuzida havo oqimi burun bo'shlig'ida erkin harakatda bo'ladi.



Tanglay-halqum birlashish funksiyasining buzilish xarakteriga ko'ra rinolaliya uch shaklga ajratiladi: yopiq rinolaliya, ochiq rinolaliya va aralash shakl.

Yopiq rinolaliya. Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonansining pasayishi natijasida yuzaga keladi. "M", "n" burun tovushlari talaffuzida eng kuchli rezonans bo'ladi. Bu tovushlarning normal talaffuzida burun-halqum yo'li ochiq bo'ladi va havo oqimi to'g'ri burun bo'shlig'iga o'tadi. Agar burun tovushlari talaffuzida burun rezonansi bo'lmasa, unda "m", "n" tovushlari "b", "d" tovushlariga o'xshab talaffuz etiladi. Rinolaliyaning yopiq shaklining kelib chiqish sababi – burun bo'shlig'idagi organik o'zgarishlar yoki tanglay-halqum birlashishining funksional buzilishidir. M. Zeeman yopiq rinolaliyaning (rinofoniya) ikki turini ajratadi: oldingi yopiq rinolaliya – bunda burun bo'shlig'ida o'tkazuvchanlik funksiyasi bo'lmaydi; orqa yopiq rinolaliya – bunda burun-halqum bo'shlig'ida o'tkazuvchanlik kamayadi.

Oldingi yopiq rinolaliyaning sabablari – burun shilliq pardasida surunkali gipertrofiya, burun bo'shlig'ida poliplar, burun devorining qiyshiqi va burun bo'shlig'ida o'smalar bo'lishidir. Orqa yopiq rinolaliya esa bolalarda adenoidlarning ko'payib ketishi, burun-halqumda poliplar, fibroma va o'smalar paydo bo'lishida kuzatiladi. Funksional yopiq rinolaliya bolalarda ko'p uchraydi, lekin doimo aniqlash qiyin, chunki u burun bo'shlig'ining yaxshi o'tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan hollarda ham kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo'pol buziladi.

Organik yopiq rinolaliyaning sababi – burun bo'shlig'ida o'tkazuvchanlikning buzilishidir. Bunda burundan to'g'ri nafas olish yo'lga qo'yilgan, ya'ni burun bo'shlig'idagi o'tkazuvchanlik yaxshilansa, kamchilik yo'qoladi. Yopiq rinolaliyada olib boriladigan logopedik ishning samaradorligi burun-halqum holatiga, uning funksiyasiga va bolaning yoshiga bog'liq. Logopedik mashg'ulotning boshlang'ich davrida nafas mashqlari olib borish tavsiya etiladi. Bundan maqsad og'iz va burundan nafas olish, nafas chiqarishni differensiasiya qilishdir. Bu mashqlar avval puflashdan boshlanib, keyin burundan qisqa va chuqur nafas chiqarish bilan almashtiriladi. Shu bilan birgalikda yumshoq tanglay va halqumning orqa devor mushaklari harakatini nafas chiqarish bilan muvofiqlashtirish ustida ish olib boriladi. Bu mashqlar "m", "n" burun tovushlarining talaffuzini to'g'ri yo'lga qo'yish va mustahkamlashga imkon yaratadi. Yakunlovchi davrda unli tovushlarning jarangdorligi va burun tovushlariga qarama-qarshi qo'yilgan tovushlar ("p", "b" – "m"; "t", "d" – "n") ustida ish olib boriladi.

Ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning ochiq shaklida og'iz bo'shlig'ida hosil bo'luvchi tovushlar dimog'da talaffuz etiladi. "I" unli tovushida tembr sezilarli darajada o'zgaradi, bu unli tovush artikulyatsiyasida og'iz bo'shlig'i toraygan bo'ladi. "A" unli tovushi talaffuzida yuqoridagi holat kamroq uchraydi, chunki bu tovush talaffuzida og'iz bo'shlig'i kengroq ochiladi. Undosh tovushlar talaffuzida tembr buzilishlari kuzatiladi. Shovqinli va qorishiq tovushlar talaffuzida xirillagan tovush qo'shilib keladi. Portlovchi "p", "b", "t", "k", "g" tovushlari noaniq talaffuz qilinadi, chunki og'iz bo'shlig'ida yetarli darajada havo bosimi hosil bo'lmaydi, natijada burun bo'shlig'i to'liq bekitilmaydi.

Ochiq rinolaliyani aniqlash uchun funksional tekshirish usullari mavjud. Eng oddiy usullardan biri Gutsman usulidir. Bunda logoped bolaga galma-gal unli tovushlarni qaytarishni buyuradi va bolaning burun yo'lini bir bekitib, bir ochib turadi. Ochiq rinolaliyada bu unli tovushlarning jarangdorligida sezilarli farq bo'ladi. Ayniqsa, "a" unlisi burun yo'li bekitib talaffuz qilinganda tovush eshitilmaydi, shu bilan birga logopedning barmoqlari burun qanotlaridagi kuchli tebranishni sezadi. Yana aniqlash usullaridan biri – fonendoskop yordamida tekshirishdir. Bunda tekshiruvchi fonendoskopning bir uchini o'zining qulog'iga, ikkinchi uchini bolaning burniga tutib turadi. Bola unli tovushlarni, ayniqsa "i" va "a" unllarini talaffuz qilganda kuchli shovqin eshitiladi. Undosh "f", "s", "sh" tovushlar talaffuzida xirillagan ovoz eshitiladi.

Ochiq rinolaliya organik va funksional bo'lishi mumkin. Organik ochiq rinolaliya tug'ma yoki hayot davomida ortirilgan bo'ladi. Tug'ma shaklining sababi yumshoq va qattiq tanglaydagi yoriqliklardir. Orttirilgan ochiq rinolaliya esa og'iz va burun bo'shlig'ida jarohatlanish yoki yumshoq tanglayning hayot davomida falajlanishi natijasida yuzaga keladi.

Funksional ochiq rinolaliyaning paydo bo'lish sabablari turlicha. Masalan, bolalarda ovoz hosil bo'lishida yumshoq tanglay harakatining sustligi. Funksional ochiq rinolaliya asab kasalliklarida ham namoyon bo'ladi. U adenoidlarni olib tashlagandan so'ng kamroq kuzatiladi, differiyadan keyingi falajlanishda ham qayd etiladi. Bu shaklni tekshirishda qattiq va yumshoq tanglayda biron o'zgarish aniqlanmaydi. Funksional ochiq rinolaliyaning belgilari asosan unli tovushlar talaffuzining buzilishi bilan namoyon bo'ladi. Undosh tovushlar talaffuzida tanglay-halqum birlashishi yaxshi, normada bo'ladi. Funksional ochiq rinolaliya organik shakliga nisbatan yengil kechadi. Ovoz mashqlaridan so'ng burun tembri yo'qoladi, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar dislalayani bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar orqali tuzatiladi.

Rinolaliyada kuzatiladigan tug'ma lab va tanglay kamchiliklari logopediya va tibbiyot fani oldiga jiddiy muammolarni qo'yadi. Turli xalqlarda, turli mamlakatlarda va hattoki har bir mamlakatning turli hududlarida tug'ma yoriqliklar bilan tug'iladigan bolalar soni turlicha. A. A. Limberg (1964) adabiyotlardagi ma'lumotlarni umumlashtirib, 600–1000 ta yangi tug'ilgan bola orasida bitta bola lab va tanglay yoriqligi bilan tug'ilishini ta'kidlaydi.

Lab va tanglaydagi yoriqliklar bolaning umumiy va nutqiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bola yutishda va nafas olishda qiynaladi. Bu holatlar bolaning jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi va organizmning boshqa kasalliklar bilan kurashish jarayonini susaytiradi. Bunday bolalar muntazam shifokor nazoratiga va davolanishga muhtojdir.

Hozirgi vaqtda quyidagi tasnif qabul qilingan:

Yuqori labdagi tug'ma yoriqliklar:

- 1) yashirin yoriqlik;
- 2) to'liq bo'lmagan yoriqlik:
  - a) burun bo'limida teri-tog'ayning o'zgarmaganligi;
  - b) burun bo'limida teri-tog'ayning o'zgarganligi.

**To'liq yoriqlik.** Bunda bolaning ilk yashash davrida xirurgik davolash ishlari olib boriladi, bu esa bola nutqining normal rivojlanishiga imkon yaratadi.

Tug'ma tanglay yoriqliklari:

1. Yumshoq tanglay yoriqliklari – yashirin, to'liqsiz, to'liq;
2. Yumshoq va qattiq tanglay yoriqliklari – yashirin, to'liqsiz, to'liq;
3. Alveolyar o'simtaning, qattiq va yumshoq tanglayning to'liq yoriqliklari – bir tomonlama, ikki tomonlama;
4. Alveolyar o'simtaning va qattiq tanglay oldingi qismining to'liq yoriqligi – bir tomonlama, ikki tomonlama.

Ikki tomonlama yoriqliklar bir tomonlama yoriqliklarga nisbatan kam uchraydi. M. P. Barchunovning ta'kidlashicha, yoriqliklar ko'proq chap tomonda (70,4 %), o'ng tomonda esa kamroq (21,4 %) kuzatiladi. Bu jarohatdan ayollarga nisbatan ko'proq erkaklar aziyat chekadilar (I. B. Bakumi, 1966; V. M. Messika, 1971). Gutsmaning ma'lumotiga ko'ra, alohida lab yoriqliklari va lab yoriqliklarining tanglay yoriqliklari bilan birga kelishi erkaklarda 68,66 %, ayollarda esa 31,34 % uchraydi. Shu bilan birga, ayollarda tanglayning alohida yoriqliklari ikki marotaba ko'p kuzatiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

To'g'ri tovushni tarbiyalash bo'yicha mashg'ulotlarni avval harakatsiz, ikki ovoqli ashulalarni aytish, nutqli va ashula aytish mashqlaridan boshlash tavsiya etiladi. Lekin vaqtning katta qismi harakat vaqtida tovush ishiga bag'ishlanishi kerak bo'ladi. Ritmika yoki gimnastika kombinatsiyalari bilan raqsli qo'shiqlar va mashqlar ijro etiladi. Bemorning yoshi qancha katta bo'lsa, harakat bilan bog'liq shuncha ko'p mashqlar taklif qilinadi, uning oldidagi vazifalar murakkablashaveradi, bu vazifalar esa tayyorgarlik ko'rish uchun ko'p vaqt talab qiladi.

Harakat bilan tovushli mashq qilishni tekshirish faqat logoritmik mashg'ulotlarda emas, balki logopedik mashg'ulotlarda ham o'tkaziladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamedov K. K., Shoumarov E. B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1994.
2. Petrova V. G., Belyakova I. V. Psixologiya umstvenno otstalyx shkol'nikov. – M.: ASAMEDIA, 2004.
3. Mo'minova L., Amirsaidova Sh. va boshqalar. Maxsus psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
4. Shomaxmudova R. Sh., Mo'minova L. R. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. Metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1993.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №10**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.